

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING MOLİYAVIY ISLOHOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Azimova Yoqutxon Sarvar qizi

TDIU, Moliya fakulteti

2-bosqich MMT-74 akademguruh talabasi

Annotatsiya. Mazkuz maqolada moliyaviy islohot tushunchasi, moliyaviy barqarorlik va rentabellik, samaradorlik va uni baholash mezonlari haqida keltirilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy islohotning zarurati hamda ularni amalga oshirish dasturlari hamda O'zbekiston misolida tahlillar, korxonalar rentabelligi o'rtasida taqqoslashlar yillar kesimida olib borilgan. Moliyaviy islohotlar orqali yuqori samaradorlikka erishayotgan korxonalarga misollar hamda ular erishgan natijalar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xo'jalik subyekt, moliyaviy islohot, IFRS, moliyaviy barqarorlik, laverej, rentabellik, likvidlik ko'rsatkichlari, samaradorlik, investitsiya, foyda marjasi, kapital aylanishi koeffitsiyenti.

I. KIRISH.

Global miqyosda moliyaviy islohotlar iqtisodiy o'sish, barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir. O'zbekiston so'nggi yillarda korxonalarni xususiylashtirish, xalqaro moliyaviy boshqaruvni joriy etish, IPO amaliyotlarini kengaytirish yo'nalishida faoliyat olib bormoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zi kimlar?

Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo-sotiq kabi operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir. Ular o'z nomidan mulkiy javobgarlik asosida ish yuritadi va bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ularga korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, davlat ulushiga ega korxonalar, tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi firmalar misol bo'la oladi.

Moliyaviy islohot bu korxonaning moliyaviy faoliyatini yaxshilash, barqarorligini oshirish, rentabellik va foydalilikni kuchaytirishga qaratilgan tashkiliy, boshqaruv va iqtisodiy chora-tadbirlar yig'indisidir. Samaradorlikni baholash esa amalga oshirilgan islohotlarning iqtisodiy natijalarini aniqlash va o'lchash jarayonidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy islohoti samaradorligini baholash – bu subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy o'zgarishlarning ya'ni islohotlarning uning moliyaviy holatiga qanday ta'sir qilganini aniqlash va tahlil qilish jarayonidir. Samarali moliyaviy islohotlar korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlashga xizmat qiladi, tushum va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini beradi. Moliyaviy islohotlar orqali byudjet mablag'lari, kreditlar, investitsiyalar samarali yo'naltiriladi. Yo'qotishlar va isrofgarchiliklar kamayadi, moliyaviy jihatdan kuchli korxonalar bozorda mustahkam o'rin egallaydi. Investorlar moliyaviy intizomga ega va shaffof boshqariladigan subyektlarga ko'proq ishonch bildiradi.

Baholash orqali risklar aniqlanib, ularni kamaytirish choralari belgilanadi. Baholash natijalariga asoslanib, uzoq muddatli strategiyalar ishlab

chiqiladi hamda resurslar qaysi yo'nalishga yo'naltirilishi kerakligi aniq bo'ladi. Baholash orqali moliyaviy islohotlar xalqaro moliya hisobot standartlariga (IFRS) mosligini ta'minlaydi va tashqi bozorlarga chiqish va xalqaro kreditlar olish imkoniyatini oshiradi. Moliyaviy islohotlar samaradorligini baholash orqali davlat byudjeti va soliq siyosatining ta'siri o'lchanadi. Davlat subvensiyalari, imtiyozlari va yengilliklar qanchalik foyda bergani aniqlanadi.

II. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Moliyaviy islohotlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonlar asosida bozor mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish yotadi.¹ Keyingi yillarda Koase (1937) va Shumpeter (1942) kabi iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar moliyaviy islohotlarning institutsional asoslarini tushuntiradi. Koase transaktsion xarajatlar nazariyasiga tayangan holda, samarali islohotlar subyektlararo kelishuv va moliyaviy vositalarning erkin aylanishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Moliya bozorlari resurslar va tavakkalchiliklarni taqsimlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi va moliyaviy tizimlarning yaxshi ishlashi iqtisodiy o'sish va samaradorlik uchun zarurdir.² Shumpeter esa moliyaviy sektorni iqtisodiy rivojlanishning "lokomotivi" deb ataydi. Moliyaviy islohot samaradorligini baholashda turli metodologik yondashuvlar mavjud. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigani quyidagilardir:

Ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash – bu usulda rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, aktivlar aylanishi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

SWOT-tahlil – korxonaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini aniqlash orqali islohotlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar baholanadi.

Benchmarking (qiyosiy tahlil) – milliy subyektlar faoliyati boshqa rivojlangan davlatlar korxonalari bilan solishtiriladi.

DEA (Data Envelopment Analysis) – resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda ishlatiladi.

“Moliyaviy islohotlar davlat moliya tizimini isloh qilish, soliqlar tizimini modernizatsiya qilish va budjet jarayonlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.”³

Ushbu maqolada mavzu bo'yicha turli adabiyotlar o'rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

III. NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin

¹ Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus: Economics – The McGraw-Hill, 2010. 745-pg

² Frederik S. Mishkin - Pul, bank va moliya bozorlari iqtisodiyoti Upper Saddle River: Pearson Education International. 2003 yil.

³ Toirov Sh. – Moliya nazariyasi Toshkent, 2018

tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yangi loyihalarga asoslangan korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.⁴

O'z faoliyatida yangi sifat talablarini joriy etayotgan samarali bozordagi o'zaro aloqalar tizimiga nisbatan tezroq kirish uchun XYuSlar tomonidan moliyaviy isloh qilishning asoslangan dasturini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunda butun xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatining natijasi sifatida yuqori yakuniy moliyaviy ko'rsatkichlarga erishishga alohida o'rin ajratilmog'i lozim. Bir vaqtning o'zida bunday dastur bozor omillari va iqtisodiy o'sish shart-sharoitlaridan foydalanish, shuningdek, innovatsion taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalarini amalga oshirish asosida XYuS faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha choralar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.⁵

Samuelson va Nordhaus aralash iqtisodiyot modelini taqdim etadilar, bu modelda bozor mexanizmlari va davlat aralashuvi birgalikda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Ular davlatning iqtisodiyotdagi roli, ayniqsa moliyaviy islohotlar orqali bozor muvaffaqiyatsizliklarini tuzatish va resurslarni samarali taqsimlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yangi loyihalar ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash va yillar kesimida taqqoslash orqali uning barqarorlik ko'rsatkichlarini oshirish choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy islohotdan oldingi va keyingi davrdagi ko'rsatkichlar taqqoslanadi:

- Likvidlik ko'rsatkichlari (joriy va tezkor likvidlik)
- Rentabellik (sof foyda, aktivlar rentabelligi, o'z kapital rentabelligi)
- Moliyaviy barqarorlik (qarz va kapital nisbati)
- Naqd pul oqimi (operatsion, investitsion va moliyalashtirish oqimlari)

Islohotdan oldingi va keyingi davrlar ko'rsatkichlari taqqoslanib, o'sish yoki pasayish aniqlanadi. Bu baholashlar orqali islohotlarning foydalilik darajasi aniqlanadi. Biznesni rivojlantirish va samaradorligini oshirish maqsadida kapitalni to'ldirishga bog'liq barcha manbalardan (kreditlar va kreditorlik qarzlaridan) maksimal foydalanishga moliyaviy faoliyatni yo'naltiribgina qolmasdan, moliyaviy menejment makrodarajada ham moliyaning asosiy - kompaniyaning barcha xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatini pul mablag'lari bilan ta'minlash - funksiyasini aniq bajarishi ham kerak. Agar ana shu prinsip amalga oshirilsa va moliyaviy xizmat hisob-kitob varag'iga pullarning doimiy ravishda tushib turishini ta'minlasa, to'lash muddati

⁴ Moliyaviy va boshqaruv tahlili / Darslik: A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b

⁵ Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (o'quv qo'llanma) / Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2010. – 276 bet

kelgan talabnomalar bo'yicha to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilsa, to'lovlarning uzoq muddatli uzaytirilishiga yo'l qo'yilmasa, bu XYuSning mustahkam moliyaviy ahvoli va sog'lom to'lovga qobilligini ko'rsatadigan asosiy belgisidir.⁶

Moliyaviy isloh qilish dasturi quyidagi chora va tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga-muvofiq:

XYuSning tashkiliy va mulkiy holatini o'zgartirish (yuqori samarali tashkiliy shakl, kapitalning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va uni samaradorlikni oshirish maqsadlari uchun joylashtirish, yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishni rivojlantirish va h.k.);


- ishlab chiqarishning investitsion-texnologik asosini o'zgartirish (asosiy fondlar va aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishi, innovatsion ruhdagi texnik va texnologik yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yangilash va h.k.);

- ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatining yuqori yakuniy natijalariga – XYuSning ixtiyoriga qoldiriladigan sof foydaga erishish, kompaniyaning qiymatini o'stirish va xarajatlarni qisqartirishning tashkiliy asosi bo'lgan puxta biznes-rejani ishlab chiqish;

- XYuSning asoslangan marketing va baho strategiyasini ishlab chiqish;

- XYuSning moliyaviy strategiyasini uning ishlab chiqarishmarketing siyosati bilan o'zaro ta'sirchanligi bog'liqligini e'tiborga olgan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.⁷

Moliyaviy leverij samarasini olish va uni taqsimlashning umumiy ko'rinishi



Korxona faoliyati va mahsulotlari raqobatdoshligini ta'minlashning eng muhim tayanchi bu uning rentabellik darajasidir. Rentabellik so'zi nemis tilidan olingan bo'lib "rentabel" daromadlik, foydalilik degan ma'noni anglatadi. Uning iqtisodiy

⁶ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik (foshkent TII Moliya instituti. - Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.

⁷ Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. – 800 b.

mazmunini moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ifoda etadi. Rentabellikning bir nechta guruhi aktivlar, ishlab chiqarish, sotuv va kapital rentabelligi guruhi tarkiblanadi. Har bitta guruhga bir nechta ko'rsatkichlar tizimi kiritiladi. Lekin baholashda, omilli tahlil etishda ularning har bittasi alohida hisob-kitob qilinadi va baholanadi.

Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari:

- Aktivlar rentabelligi (ROA Return On Assets) = Sof foyda / Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;

- Sotuv rentabelligi = Mahsulot (ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi / Sotishdan sof tushum;

- Operatsion faoliyat rentabelligi (ROS Return On Sales)⁸

Islohotlarning samaradorligini aniqlash uchun quyidagi koeffitsiyentlar hisoblanadi:

- Foyda marjasi
- Xarajatlarning daromadga nisbati
- Kapital aylanishi koeffitsiyenti
- Soliqqa tortilish darajasi

Islohotlar tufayli moliyaviy barqarorlik kuchayganmi yoki xavf darajasi oshganmibu alohida ko'rib chiqiladi. Misol uchun, ortiqcha qarz olish orqali qisqa muddatli likvidlikni oshirish mumkin, ammo bu uzoq muddatli riskni kuchaytiradi. Ishlab chiqarish samaradorligi, sotuv hajmi va rentabellik, bozor ulushining o'zgarishi, investitsiya jozibadorligi (kredit reytingi, investorlarning qiziqishi) kabi ko'rsatkichlar ham shular jumlasidandir.

Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U saraflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqarish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.⁹


So'nggi yillarda moliya sektorining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar xorijiy investorlarning bank sohasiga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam bermoqda. Masalan, 2020-yilda Germaniyaning moliyaviy rivojlanish instituti (Deutsche Investitions-und Entwicklungsgesellschaft mbH, DEG) va Triodos Investment Management "Ipak yo'li" bankining 25 million

⁸ Moliyaviy tahlil. Darslik. / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 736 b

⁹ R.S.Muratov, I.A.Djalalova, S.Sh.Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2014,366- bet

dollar miqdorida yangi chiqarilgan aksiyalarini sotib olish orqali bank ustav kapitaliga sarmoya kiritdi.¹⁰

2020–2022 yillarda O‘zbekistonda eng yuqori rentabellikka ega korxonalar (trln so‘mda)



2020-yil yakunlariga ko‘ra davlat ulushidagi eng yuqori sof foyda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga to‘g‘ri kelgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, NKMK sof foydasi taxminan 10,05 trln so‘mni tashkil etgan. Ikkinchi o‘rinni OKMK – Olmaliq kon-metallurgiya kombinati taqriban 3,94 trln so‘m va uchinchi o‘rinni O‘zbekistonneftgaz taqriban 3,4 trln so‘m bilan egallagan. Yirik rentabellikka erishgan boshqa korxonalar qatorida Farg‘onaazot taqriban 0,293 trln so‘mni, Xududgazta‘minot taqriban 0,211 trln so‘m va xususiy Coca-Cola Uzbekistan esa taqriban 0,2trln so‘m miqdorda sof foydaga ega bo‘lgan.

2021-yilda ham Navoiy KMK eng yuqori daromad keltirgan korxona bo‘lib, uning sof foydasi 10,6 trln so‘mga yetgan. Ikkinchi o‘rinni Olmaliq KMK (OKMK) 5,36 trln so‘m bilan, uchinchi o‘rinni esa O‘zbekistonneftgaz taqriban 3,35 trln so‘m bilan egallagan. 2021-yili yuqori rentabellik ko‘rsatgan boshqa yirik korxonalar qatoriga O‘zmetkombinat (1,47 trln so‘m), Navoiyazot (0,78 trln so‘m), Uztelekom (0,47 trln so‘m) va Farg‘onaazot (0,35 trln so‘m) kabi tarmoqlar kirgan.

2022-yili ham Navoiy KMK yetakchilikni davom ettirib, sof foydasi 15,3 trln so‘mga chiqdi va OKMKning foydasi esa 6,67 trln so‘mga yetgan. Uchinchi o‘rinda Milliy bank (O‘zMilliybank) 2,40 trln so‘m bilan turadi. Keyingi yuqori rentabellikka ega davlat korxonalariga Navoiyuran ($\approx 2,08$ trln so‘m) va Navoiyazot ($\approx 1,33$ trln so‘m), O‘zmetkombinat (1,16 trln), Ipoteka bank (1,15 trln), O‘zbekneftgaz (1,09 trln) va Uzavtosanoat (0,87 trln) kabi korxonalar kiradi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda eng yuqori rentabellikka erishgan korxonalar asosan sanoat va energetika tarmoqlariga mansub bo‘lib, ayniqsa oltin va metallar

¹⁰ <https://yuz.uz/uz/news/moliya-islohotlari-samaralari>

sanoati kompaniyalari yetakchi o‘rinni egallamoqda.¹¹

O‘zbekiston 2024-yildan boshlab Franklin Templeton boshqaruvida 1,7 mlrd dollarlik davlat aktivlarini UzNIF orqali xususiylashtirish jarayoniga kirishdi. Kamida 10 ta yirik davlat korxonasining IPO orqali aksiyalari xalqaro fond bozorlariga chiqariladi. Bu esa o‘z navbatida davlat ishtirokini kamaytirish, korxona boshqaruvida shaffoflikni ta‘minlash, xalqaro investorlarni jalb qilish, korxonalarning moliyaviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Samaradorlik: 2024-yil yakunlariga ko‘ra, islohotlar boshlangan 5 ta yirik subyektda rentabellik o‘rtacha 2,4%ga oshgan, qarz yuki 15%ga kamaygan.

Artel Electronics 2018-yildan boshlab kompaniya moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga (IFRS) moslashtirdi, Deloitte auditi va Fitch reytingini oldi. Artel O‘zbekiston banklaridan qarzsiz faoliyat yuritmoqda va chet el banklaridan 220 million AQSh dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlar jalb qilgan. 2022 yilga kelib, kompaniya mahsulotlarini 13 ta mamlakatga eksport qilgan.¹²

“Aloqabank” ATB 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan islohot strategiyasi doirasida transformatsiya jarayonini boshladi, raqamli xizmatlarni kengaytirdi va davlat ulushini xususiylashtirishga tayyorlanmoqda.¹³

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ asosiy faoliyatga oid bo‘lmagan sho‘ba korxonalarini optimallashtirish hisobiga 2024-yilga kelib tizim tashkilotlari soni 30 tadan 19 taga qisqardi. Jumladan, «Azamat» sport-sog‘lomlashtirish markazi, «Nurchi» dam olish maskani, Namangan va Toshkent tibbiy sanitariya qismlari, «Nurafshon» sanatoriyasi, «Qoronko‘l» dam olish maskani, «Qaldirg‘och» dam olish oromgohi va boshqalar shular jumlasidandir. Natijada, Aksiyadorlik jamiyati yiliga o‘rtacha 30,0 mlrd so‘m miqdorida nosohaviy harajatlarni qisqartirishga erishdi. 2022–2026-yillar uchun “McKinsey&Company” (Mak Kinsey) xalqaro konsalting kompaniyasi tavsiyalariga asosan operatsion samaradorlikni 1,1 trln so‘mga, xususan 2024-yilda 350,0 mlrd. so‘mga ta‘minlash bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-apreldagi 210-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan ushbu «Yo‘l xaritasi» ijrosi joriy yilda 355,0 mlrd. so‘mga ta‘minlandi. 2022–2026-yil uchun belgilangan reja ijrosi 1085,0 mlrd so‘m yoki 98 foizga ta‘minlanadi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab Aksiyadorlik jamiyati o‘z faoliyatini daromad bilan yuritishi hamda yil yakunini 122,2 mlrd. so‘m miqdorida sof foyda bilan yakunlashi kutilmoqda.¹⁴

UzAuto Motors AJ 2019 yildan boshlab MSFOga o‘tish va moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish, ichki audit tizimini kuchaytirish va xarajatlarni nazorat qilish tizimlarini joriy qilish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirish kabi islohotlar natijasida 2019-2023 yillarda moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichi (rentabellik) 10-12% ga oshdi. Xarajatlarni kamaytirish va ichki nazorat kuchayishi natijasida foyda ko‘rsatkichlari yaxshilandi. Raqamli moliyaviy hisobotlar yordamida qarz yukini va xarajatlarni samarali boshqarish yo‘lga

¹¹ <https://uz.kursiv.media>

¹² <https://Kun.uz>

¹³ <https://Spot.uz>

¹⁴ <https://www.uzbekistonmet.uz>

qo'yildi.¹⁵

IV. XULOSA VA TAKLIFLAR.

Moliyaviy islohotlar bevosita yoki bilvosita korxonaning daromadliligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Ularning samaradorligini baholash esa ushbu natijalarni aniqlash, tahlil qilish va keyingi islohotlar uchun muhim asos yaratadi. O'zbekiston moliyaviy islohotlar sohasida jahon tajribasini o'rganib, bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Baholash usullari orqali korxonalarning real moliyaviy holatini tahlil qilish va islohotlarning samaradorligini aniqlash mumkin. Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda ham shaffof IPO, xalqaro standartlar asosida moliyaviy tahlil tizimlarini joriy qilish dolzarbdir.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paul A.Samuelson, William D.Nordhaus:Economicsb—TheMcGraw-Hill,2010. 745-pg
2. Frederik S. Mishkin - Pul, bank va moliya bozorlari iqtisodiyoti Upper Saddle River: Pearson Education International. 2003 yil.
3. Ross, Westerfield, Jaffe: Corporate finance – McGraw Hil, 2018. 1040-pg
4. Toirov Sh. – Moliya nazariyasi Toshkent, 2018
5. Moliyaviy va boshqaruv tahlili / Darslik: A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b
6. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (o'quv qo'llanma) / Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2010. – 276 bet
7. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik .Toshkent: "Noshir", 2012. 712-bet.
8. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: “Iqtisod-Moliya” 2019. – 800 b.
9. Moliyaviy tahlil. Darslik. / M.Y.Raximov, N.N.Kalandarova; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. - 736 b
10. R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2014,366- bet
11. <https://yuz.uz/uz/news/moliya-islohotlari-samaralari>
12. <https://uz.kursiv.media>
13. <https://Kun.uz>
14. <https://Spot.uz>
15. <https://www.uzbekistonmet.uz>
16. <https://uzautomotors.com>

¹⁵ <https://uzautomotors.com>